

O‘ZBEK VA JAHON ADABIYOTI

UO‘K(UDC, УДК): 82.02

“AHMAD YASSAVIY” ROMANIDA LISONIY VA NOLISONIY
SATHLARNING ADABIY-ESTETIK INTEGRATSIYASI¹

To‘rayeva Bahor Bahriddinovna

*O‘zRFA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti**yetakchi ilmiy xodimi,**filologiya fanlari doktori, dotsent**E-mail: turayeva.bahor@gmail.com**ORCID ID:0000-0003-4019-7891*

ANNOTATSIYA	KALIT SO‘ZLAR
Maqolada lisoniy va nolisoniy sathlarning integratsiyasi Sa’dulla Siyoyevning tarixiy roman yaratish mahorati tahlili asosida izohlangan. Arxaik leksika, diniy-tasavvufiy istilohlar, tarixiy grammatik tuzilish, va’z, duo, qasam, dialog va ichki monolog shakllari orqali lisoniy sath yuzaga chiqsa, nolisoniy sath esa XII asr Turkiston ijtimoiy muhiti, Yassaviylik tariqati, xalq e’tiqodi, muallifning ijodiy niyati va kitobxon idroki bilan bog‘liq. Romandagi ulamolar, hojilar, darvishlar, dehqonlar nutqidagi farqlar, bozor, masjid, xonaqoh, safar va xalq yig‘inidagi voqeliklar tasviri, qahramonlarning ijtimoiy mavqeyi, e’tiqodi, ruhiyati va madaniy saviyasini ochib beradi. Personajlar nutqi davr ruhini, xalq tafakkurini va diniy-axloqiy dunyoqarashni ifodalovchi estetik vosita vazifasini bajargan. Ahmad Yassaviy nutqidagi qat’iyat, sokinlik, diniy dalillar Shahobiddin, Ashrafxon hoji nutqidagi hasad va riyokorlik bilan qarama-qarshi qo‘yiladi. Obrazlar o‘rtasidagi ziddiyat asarning g‘oyaviy-estetik mohiyatini ochuvchi badiiy vosita hisoblanadi. Asardagi va’z, duo, qasam va hikmatlar lisoniy shakl sifatida berilgan bo‘lsa-da, ularning adabiy-estetik ta’siri nolisoniy omillar bilan belgilanadi. Yassaviyning haj safari oldidan xalqqa murojaatida diniy	Muallif konsepsiyasi, shakl va mazmun, lisoniy va nolisoniy sath, kompozitsion birlik, lingvopoetika, roman, obraz, hikmat. Received: April 30, 2026 Accepted: May 10, 2026 Available online: September 5, 2026

¹For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):

To‘rayeva B. “Ahmad Yassaviy” romanida lisoniy va nolisoniy sathlarning adabiy-estetik integratsiyasi.
 // Komparativistika (Comparative Studies). — 2026. — Vol.3, № 4(12) — B. 7-32.

iboralar, hadislar sharhi, pand-nasihat va takroriy sintaktik qurilmalar kuchli ritm hosil qiladi. Nutqning mazmunida faqat ibodatga da'vat emas, balki oilaga mas'uliyat, yetimga shafqat, faqirga saxovat ko'rsatish, zulm qilmaslik va ma'rifatli bo'lishga intilish kabi ijtimoiy-axloqiy qadriyatlar aks etadi. Asar lisoniy sathidagi diniy-ma'rifiy ifoda nolisoniy sathdagi xalqning ijtimoiy turmush tarzi, axloqiy me'yor va adolat g'oyasi bilan uyg'unlashadi. Ruqiya bibi, Abdurauf va oddiy xalq vakillari bilan bog'liq tasvirlar Ahmad Yassaviy obrazini faqat shayx emas, balki inson dardini anglaydigan ma'naviy rahnamo sifatida ko'rsatadi. Bu holat tasavvufiy g'oyaning xalq iztiroblari bilan bog'liq holda talqin qilinganini ko'rsatadi. Romanda lisoniy va nolisoniy sathlarning adabiy-estetik integratsiyasi tarixiy davr manzarasini jonlantiradi, qahramonlarning keskin bahs-munozaralari va ichki monologlari dramatismni hosil qiladi, diniy istilohlar esa ma'naviy mazmunni kuchaytiradi. Nolisoniy sathdagi tarixiy davr, muallif uslubi, tasavvuf ta'limoti va xalq e'tiqodi lisoniy vositalarning badiiy vazifasini belgilaydi. Shu sababli romanning estetik ta'siri alohida so'z, obraz yoki voqelik ifodasida emas, balki ularning o'zaro tizimli munosabatida yuzaga keladi. Demak, "Ahmad Yassaviy" romanida lisoniy va nolisoniy sathlar integratsiyasi tarixiy haqiqatni badiiy haqiqatga, diniy-ma'rifiy mazmunni esa estetik hodisaga aylantiradi.

ЛИТЕРАТУРНО-ЭСТЕТИЧЕСКАЯ ИНТЕГРАЦИЯ ЛИНГВИСТИЧЕСКОГО И ВНЕЛИНГВИСТИЧЕСКОГО УРОВНЕЙ В РОМАНЕ «АХМАД ЯССАВИ»

Тураева Бахор Бахриддиновна

Доктор филологических наук, доцент

Институт узбекского языка, литературы и фольклора

Академии наук Республики Узбекистан

Ташкент, Узбекистан

E-mail: turayeva.bahor@gmail.com

ORCID ID:0000-0003-4019-7891

АННОТАЦИЯ	КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА
В статье на основе анализа мастерства автора исторического романа Саъдуллы Сиёева рассматривается интеграция языкового и внеязыкового уровней в исторической прозе. Если языковой уровень представлен архаической лексикой, религиозно-суфийской терминологией, исторически обусловленными грамматическими структурами, жанровыми формами проповеди, молитвы, клятвы, диалога и внутреннего монолога, то внеязыковой уровень связан с социальной средой Туркестана XII века, тарикатом Яссавия, народными верованиями, творческим замыслом автора и восприятием читателя. Различия в речи улемов, хаджи, дервишей и дехкан, описание происходящего на базаре, в мечети, ханака, во время паломничества и народных собраний раскрывают социальное положение, верования, внутренний мир и культурный уровень персонажей. Речь персонажей выполняет функцию эстетического средства, выражающего дух эпохи, народное мышление и религиозно-нравственное мировоззрение. Решительность, спокойствие и религиозная аргументация в речи Ахмада Яссави противопоставлены зависти и лицемерию в речи Шахобиддина и хаджи Ашрафхана. Противопоставление персонажей является художественным средством раскрытия идейно-эстетической сущности произведения. Хотя проповеди, молитвы, клятвы и хикматы в произведении представлены как языковые формы, их литературно-эстетическое воздействие определяется	Авторская концепция, форма и содержание, языковой и неязыковой уровни, композиционное единство, лингвопоэтика, роман, образ, мудрость.

внеязыковыми факторами. В обращении Яссави к народу перед паломничеством в Мекку религиозные выражения, толкование хадисов, наставления и повторяющиеся синтаксические конструкции создают выразительный ритм. Содержание речи отражает не только призыв к молитве, но и такие социально-нравственные ценности, как ответственность перед семьёй, сострадание к сиротам, щедрость по отношению к бедным, недопустимость угнетения и стремление к просвещённости. Религиозно-просветительская составляющая языкового уровня произведения органично сочетается с социальным укладом, нравственными нормами и идеей справедливости, представленными на внеязыковом уровне. Эпизоды, связанные с Рукиёй-биби, Абдурауфом и представителями простого народа, раскрывают образ Ахмада Яссави не только как шейха, но и как духовного наставника, понимающего душевную боль людей. Это свидетельствует о том, что суфийская идея интерпретируется в произведении в тесной связи с мыслью о страданиях народа. В романе литературно-эстетическая интеграция языкового и внеязыкового уровней оживляет картину исторической эпохи, острые споры и внутренние монологи героев создают драматизм, а религиозная терминология углубляет духовно-нравственное содержание. Историческая эпоха, авторский стиль, суфийское учение и народные верования, представленные на внеязыковом уровне, определяют художественные функции языковых средств. Поэтому эстетическое воздействие романа основано не на отдельном слове, образе или описании исторической действительности, а на их системной взаимосвязи. Таким образом, в романе «Ахмад Яссави» интеграция языкового и внеязыкового уровней превращает историческую правду в художественную, а религиозно-просветительское содержание – в эстетическое явление.

LITERARY-AESTHETIC INTEGRATION OF LINGUISTIC AND NON-LINGUISTIC LEVELS IN THE NOVEL “AKHMED YASSAWI”

Bahor Bahriddinovna Turaeva

*Doctor of Sciences in Philology, an Associate professor
Leading Research Fellow of the Institute of Uzbek Language, Literature and
Folklore of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan,
Tashkent, Uzbekistan*

E-mail: turayeva.bahor@gmail.com

ORCID ID:0000-0003-4019-7891

ABSTRACT

This article examines the integration of linguistic and non-linguistic levels through an analysis of Sadulla Siyoyev's historical novel writing skills. The linguistic level is revealed through archaic vocabulary, religious and mystical terms, historical grammatical structure, sermons, prayers, oaths, dialogues, and forms of internal monologue, while the non-linguistic level is associated with the social environment of 12th-century Turkestan, the Yassawi's tarikat, popular beliefs, the author's creative intent, and the reader's perception. Differences in the speech of scholars, pilgrims, dervishes, and peasants in the novel, as well as the depiction of realities in the marketplace, mosque, inn, travel, and public gatherings, reveal the social status, beliefs, mentality, and cultural level of the characters. The characters' speech served as an aesthetic tool expressing the spirit of the era, popular thinking, and religious and moral worldview. The determination, calm, and religious arguments in Akhmed Yassawi's speech contrast with the envy and hypocrisy in the speeches of Shahobiddin and Ashrafkhan Haji. The contrast between the images is an artistic device that reveals the ideological and aesthetic essence of the work. Although the sermons, prayers, oaths, and proverbs in the work are presented in linguistic form, their literary and aesthetic impact is determined by non-linguistic factors. In Yassawi's address to the people before the Hajj, religious expressions, commentary on hadith, instructions, and repetitive syntactic devices create a strong rhythm. The content of the speech reflects not only a call to worship but also social and moral values, such as responsibility for family,

KEYWORDS

Author's concept, form and content, linguistic and non-linguistic levels, compositional unity, linguapoetics, novel, image, wisdom.

compassion for orphans, generosity toward the poor, non-injustice, and the pursuit of education. The religious and educational expressions on the linguistic level of the work are combined with the social way of life of the people, moral norms, and the idea of justice on a non-linguistic level. The images associated with Rukiya Bibi, Abdurauf, and ordinary people portray Akhmed Yassawi not only as a sheikh but also as a spiritual leader who understands human suffering. This suggests that the mystical idea is interpreted in relation to the suffering of the people. As a result of the literary and aesthetic integration of linguistic and non-linguistic levels in the novel, ancient words recreate the landscape of the historical period, the characters' sharp arguments and internal monologues create drama, and religious terms enhance the spiritual content. On the non-linguistic level, the historical era, the author's style, the teachings of mysticism, and the beliefs of the people determine the artistic function of linguistic means. Therefore, the aesthetic effect of the novel arises not from a single word, image, or expression of reality, but from their systematic combination. Thus, in the novel "Akhmed Yassawi", the integration of linguistic and non-linguistic levels transforms historical reality into artistic reality, and religious and educational content into an aesthetic phenomenon.

KIRISH

Badiiy matn sathlari va ularning iyerarxiyasi zamonaviy filologiyaning asosiy muammolaridan biridir. Soʻzlar, gaplar, obrazli ifodalar, dialoglar, tasvirlar, uslubiy vositalar, kompozitsion birliklar tizimidan tashkil topgan badiiy matndan badiiy asar kengroq tushuncha. Badiiy asar matn orqali yuzaga chiqadigan gʻoya, mazmun, obrazlar tizimi, syujet, kompozitsiya, konflikt, estetik taʼsir, muallif konsepsiyasi va kitobxon idrokini ham oʻz ichiga oladi. Badiiy matn va badiiy asarni farqlash nazariy va amaliy tahlil uchun zarur. Lingvopoetika soʻz, ibora, sintaktik qurilma, takror, metafora, ramz kabi birliklarning badiiy vazifasini, poetika esa bu til birliklari orqali yuzaga kelgan obrazlar tizimi, gʻoya, muallif niyati, kompozitsiya, janr, pafosni oʻrganadi. Badiiy matn asarning lisoniy-semiotik mavjudligini, badiiy asar esa sanʼat hodisasini anglatadi. Matnning faqat til xususiyatlari tahlilga tortilsa, asarning falsafiy-estetik mohiyati ochilmaydi, gʻoya va obrazlar haqida umumiy mulohaza yuritilsa, ularning qanday lisoniy vositalar orqali yaratilgani mavhumligicha qoladi. Filologik yondashuv matnning til qurilishi va asarning estetik yaxlitligini birgalikda oʻrganishni taqozo qiladi.

Verbal matn – koʻp asrlar davomida oʻquvchini estetik taʼsir kuchi bilan oʻziga jalb qilib kelgan badiiy ijodning noyob mahsulidir. Badiiy matn bugungi kunda oʻz-oʻzicha mavjud boʻlgan, yopiq va mustaqil hodisa sifatida qaralmaydi. Unda maʼno tashuvchi imkoniyat mavjudligi taʼkidlanadi. Uning “hayotiy makoni” esa shu maʼnoning matnni qabul qilayotgan subyekt, yaʼni kitobxon ongida faollashuvi orqali shakllanadi (Shchirova I., Goncharova E., 2007, 8-9).

Badiiy asar sathlar iyerarxiyasidan tashkil topgan yaxlit adabiy-estetik hodisadir. Sath atamasi matn tarkibidagi nisbatan mustaqil, lekin yaxlitlikni taʼminlashga xizmat qiluvchi qatlam maʼnosida ishlatiladi. Har bir sath ichki qonuniyatlarga ega boʻlib, umumiy maʼnoviy tizimning tarkibiy qismi hisoblanadi. Sathlarning har biri boshqa qatlamlar bilan munosabatga kirishadi va matnning umumiy maʼnosini shakllantirishda ishtirok etadi. Iyerarxiya esa shu qatlamlarning quyi birliklardan yuqori umumlashmalarga koʻtarilib borishini anglatadi. Masalan, tovush va soʻz sintaktik birlikni, sintaktik birlik tasvirni, tasvir obrazni, obraz syujet

va konflikt, ularning barchasi esa kompozitsion yaxlitlikni yuzaga chiqaradi. Har bir sath matnda muayyan vazifa bajarsa-da, u mustaqil hodisa emas, balki boshqa sathlar bilan uzviylikda ma'no hosil qiladi. Til sathi badiiy ifodaning moddiy asosini tashkil etsa, semantik sath shu til birliklari orqali obraz, motiv, ramz va tagma'nolarni yuzaga chiqaradi. Syujet, kompozitsiya, obrazlar tizimi va hikoya usuli esa matndagi voqelikni estetik jihatdan tartibga solib, yaxlit badiiy butunlikka aylantiradi. Demak, sathlarni tahlil qilish – ularning iyerarxik munosabati orqali umumiy badiiy ma'no va estetik g'oyaning qanday shakllanishini aniqlashdir. Y.Lotman nazariyasida badiiy matnning asosiy xususiyati uning iyerarxik tashkil topganidadir. Olimning ta'kidlashicha, har qanday til singari san'at tili ham belgilar tizimiga, bu belgilarni birlashtirish tartibiga va strukturaviy iyerarxiyaga ega bo'ladi. Badiiy matn tartibsiz elementlar yig'indisi emas, ko'p qatlamli va o'zaro bog'langan murakkab strukturadir. Har bir qatlam boshqa qatlamlar bilan munosabatga kirishadi va umumiy semantik tizimni shakllantiradi. Badiiy matnning eng muhim belgilaridan biri shundaki, unda “sof shakl unsuri” mavjud emas, matndagi har bir badiiy unsur ma'no tashiydi, semantik vazifa bajaradi va umumiy holda badiiyatni yuzaga chiqaradi. G'oya matndan tashqarida emas, balki barcha unsurlarning iyerarxik munosabatida yuzaga chiqadi. Shu bois Y.Lotman an'anaviy “shakl va mazmun” kategoriyalariga ajratishni tanqid qiladi. Uning fikricha, “badiiy asarda shakl alohida, mazmun esa undan mustaqil mavjud bo'la olmaydi. San'at kommunikatsiya vositalaridan biridir. Har qanday til muayyan strukturadan iborat va bu strukturaga iyerarxiklik xos. Badiiy matn murakkab qurilgan ma'nolar tizimidir” (Lotman Y., 1970, 13). Zamonaviy filologiyada matn yuqori darajadagi iyerarxik birlik sifatida o'rganilmoqda. Badiiy matn ko'p o'lchamli, aspektli va funksiyali hodisa sifatida murakkab belgi hamda kommunikativ yaxlitlikni o'zida birlashtiradi. Y.Lotmanning fikriga tayangan holda, V.Tyupa tahlilda badiiy unsurlar alohida-alohida sanalmaydi, balki ularning asar ichidagi vazifasi va o'zaro bog'liqligi aniqlanadi, deya ta'kidlaydi. To'laqonli tahlil – asarni alohida qismlarga ajratish emas, balki ularning o'zaro qanday bog'lanib, yaxlit va murakkab badiiy ma'no yaratishini ochib berishdir. Bunda asarni to'liq qamrash shart emas, lekin

olingan qism butundan uzilmasligi kerak. Demak, badiiy sathlar alohida nomlar emas, balki butunlikka xizmat qiladigan funksional qatlamlardir. Matnning muayyan qismi tahlil qilinishi mumkin, ammo uni badiiy butunlikning ajralmas qismi sifatida ko‘rib chiqish kerak (Tyupa V., 2009, 14).

TADQIQOT METODLARI

Lisoniy va nolisoniy sathlarning adabiy-estetik integratsiyasini tadqiq etishda struktur-semiotik, lingvopoetik, madaniy-tarixiy, kontekstual, psixopoetik hamda kompleks-integrativ metodlar qo‘llanildi. Matndagi til birliklari, ramzlar, predmetlarni struktur-semiotik metod ochib bersa, so‘z, ibora, dialog va monologlarning estetik vazifasini lingvopoetik metod aniqlaydi. Kontekstual va madaniy-tarixiy metodlar tarixiy davr, diniy-falsafiy qarashlar, urf-odatlar va ijtimoiy muhit negizida tahlil qilsa, psixopoetik metod esa qahramonlarning ichki olami, kechinmalari va ularning lisoniy-nolisoniy ifodasini o‘rganadi. Ushbu metodlarni birlashtirgan kompleks-integrativ yondashuv lisoniy va nolisoniy omillar o‘rtasidagi aloqani yaxlit adabiy-estetik tizim sifatida tahlil qilish imkonini beradi.

ASOSIY QISM

Badiiy matn sathlari alohida-alohida unsurlar emas, ma’no hosil qiluvchi yaxlit tizimning tarkibiy qismi sifatida o‘z vazifasini bajaradi. “Badiiy asarda o‘rganilayotgan hodisalarni sathlar va munosabatlar tizimlariga ajratish masalasi struktural yondashuvning mohiyatidan kelib chiqadi. Bunda munosabatlarni matn ichidagi va matndan tashqaridagi munosabatlarga ajratish muhim. Har bir sathda va butun struktura miqyosida real qo‘llangan badiiy unsurlar yig‘indisi hamda matndan tashqari unsurlar ushbu sath yoki butun strukturaning yaxlitligini tashkil qiladi” (Koshelev A., 1994, 215). Real qo‘llangan badiiy unsurlar – so‘zlar, obrazlar, ritm, syujet, kompozitsiya, personajlar va boshqa poetik birliklar; matndan tashqari unsurlar – muallif yashagan davr, adabiy an‘analalar, tarixiy sharoit, mifologik tasavvurlar, boshqa matnlar bilan aloqalar va kitobxon idrokini anglatadi.

Asardagi voqelikni qayta hikoya qilish odatda voqealar rivojining umumiy bayonini ifodalaydi, ammo ritm, ohang, drammatizm, nuqtayi nazar va obrazlararo munosabatlarni qamrab ololmaydi. Badiiy asar tahlilida syujet mazmunini bayon

etish bilan cheklanmaslik zarur. Badiiy matnni sathlar tizimi sifatida o'rganish, matndagi "kichik" birliklarning "katta" ma'no tuzilmalariga qanday xizmat qilishini ko'rsatadi. Badiiy matnning har bir sathi o'z vazifasini boshqa sathlar bilan uzviylikda bajaradi. Masalan, fonetik takror alohida tovush hodisasi bo'lib qolmaydi; u ritm, ohang, ruhiy holat va ramziy ma'no bilan bog'lanadi. Syujet esa voqealar ketma-ketligi bilangina tugamaydi, konflikt, qahramon, zamon-makon, muallif ijodiy niyati va kitobxon idroki orqali mazmun hosil qiladi.

Badiiy asarni "voqealar ketma-ketligi" sifatida tushunish uning estetik tabiatini toraytiradi. Matn o'zida til, obraz, syujet, kompozitsiya, ritm, janr, zamon-makon, muallif nuqtayi nazar va kitobxon idrokini birlashtiradi. Shu bois badiiy matnni sathlar va ularning o'zaro munosabatlari orqali tahlil qilish zarur. D.Quronov bu masalada ikki asosli hamda ko'p sathli yondashuvlar bir-birini inkor etmasligini alohida ta'kidlaydi: "San'at asarining uch jihati bor: tashqi shakl, ichki shakl va mazmun. Adabiyotga tatbiqan olinganda bu mos ravishda so'z, obraz va g'oya demakdir. Bundan tashqari, fenomenologik adabiyotshunoslik vakillari tomonidan taklif etilgan adabiy asarga ko'p sathli hodisa sifatida qarash ham mavjud. Sirasi, ikki asosli va ko'p sathli yondashuvlar bir-birini inkor qilmaydi, aksincha, ular bir-birini to'ldiradi" (Quronov D., 2018, 135). Olim "konkret asar strukturasini – butunlikning tashkillanishi, uni tashkil etayotgan unsurlarning o'zaro aloqalari, ularning qay yo'sin butunlik hosil qilishini – yorqin tasavvur etmasdan turib, uning mazmun-mohiyatini anglash maholligi, bittagina unurning e'tibordan chetda qolishi ham butunning mazmun-mohiyatini o'zgartirib yuborishi"ni e'tirof etadi (Quronov D, 2004, 82-83).

Demak, badiiy matn, bir tomondan, shakl va mazmun birligi sifatida mavjud bo'lsa, ikkinchi tomondan, ichki strukturasini jihatidan ko'p sathli tizimdir. "So'z – obraz – g'oya" uchligi matnning eng ixcham iyerarxik munosabati bo'lib xizmat qiladi: so'z obrazni hosil qiladi, obraz g'oyani tashiydi, g'oya esa barcha sathlarni umumlashtiradi.

Lisoniy va nolisoniy sathlarning adabiy-estetik integratsiyasi "Ahmad Yassaviy" romani misolida tahlil qilindi. Lisoniy sath – fonetik, morfologik, leksik, sintaktik,

ritmik-intonatsion birliklarni o'z ichiga olib, badiiy matnning quyi, lekin asosiy qatlamini tashkil qiladi. Mazkur birliklar badiiy matnda ma'no tashish, obraz va hissiy-estetik ta'sir yaratish, kompozitsion yaxlitlikni ta'minlash vazifalarini bajaradi. N.S.Bolotnova lisoniy tahlil badiiy asarni adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan chuqur o'rganish uchun asos ekanini qayd etadi. Matn oddiy til birliklari yig'indisi emas, balki kommunikativ, semantik va pragmatik xususiyatlarga ega murakkab filologik hodisadir. Shu sababli lisoniy sathni tahlil qilishda so'z, gap qurilishi, badiiy-uslubiy vositalar, matn tarkibi va mazmuni uzviylikda o'rganiladi. Nolisoniy sath esa matnning bevosita til tizimidan tashqarida bo'lsa-da, uning mazmuni va badiiy-estetik tabiatini belgilovchi omillar majmuyidir. Bunga tarixiy davr, ijtimoiy sharoit, diniy-falsafiy qarashlar, muallif va kitobxon munosabati kiradi. Olima nazdida vaziyat, muallif shaxsi, yozuvchi va o'quvchi munosabati, ijtimoiy-tarixiy muhit kabi nolisoniy omillarni hisobga olish zarur, ular matnning ichki ma'no tizimini ochishga xizmat qiluvchi konseptual asosni tashkil etadi. Ushbu nolisoniy omillarni hisobga olish matnning g'oyaviy-mazmuniy tahlili uchun muhim (Bolotnova N., 2009, 376).

Badiiy matn tahlilida lisoniy sath shaklni, nolisoniy sath esa mazmunni belgilaydi, degan yondashuv biryoqlama, ular uzviylikda obrazlar tizimi, muallif konsepsiyasi, g'oyaviy yo'nalishi va kitobxonga estetik ta'sir ko'rsatish jarayonini yuzaga keltiradi (Bolotnova N., 2009, 248).

Ikkilamchi belgi tizimi sifatida badiiy til oddiy, kundalik tabiiy til asosida yaratiladi, lekin uni doimo qandaydir tarzda o'zgartiradi, buzadi, yangicha ma'no beradi. Shu sababli badiiy matnlarda ko'chma ma'nolilik, bilvosita ma'no yuklash xususiyati paydo bo'ladi. Bu xususiyat badiiy matnlarning ajralmas semiotik belgisidir. Lingvistik belgining asl ma'nosini saqlab qolish bilan birga, ramziylashtirish uning ma'no doirasini sezilarli darajada kengaytiradi. Ijodkor asarda so'zlardan foydalanar ekan, ularni odatdagi ma'nosidan kengroq, chuqurroq va ko'chma ma'noda ishlatadi (Tamarchenko N., Tyupa V., Broitman S., 2004, 25). Lingvopoetik tahlilda til sathi faqat lug'aviy ma'no bilan chegaralanmaydi. Muallif fonetik, leksik, morfologik, semantik yoki sintaktik normadan ongli ravishda og'ishi

mumkin. Bunday og‘ish badiiy-estetik maqsadga xizmat qilsa, matnning poetik qiymatini oshiradi. “Yozuvchi milliy tildan foydalanar ekan, umumodatlanilgan normadan og‘adi... va bu “og‘ish”dan ma’lum badiiy-estetik maqsadni ko‘zlaydi. Bu xil og‘ishlar tilning turli sathlarida – fonetik, morfologik, leksik, semantik, sintaktik sathlarda kuzatilishi mumkin. So‘z qo‘llashdagi normadan og‘ishlar davr ruhini aks ettirish; joy koloritini berish; personaj nutqini individuallashtirish; tasvir predmetiga munosabatni ifodalash kabi badiiy-estetik maqsadlarni amalga oshirishda qo‘llaniladi (Quronov D., 2018, 70).

Tarixiy-biografik, ma’rifiy, tasavvufiy va badiiy-estetik qatlamlarni birlashtirgan Sa’dulla Siyoyevning “Ahmad Yassaviy” romani oddiy tarixiy voqealar silsilasidan iborat emas, unda Ahmad Yassaviyning ma’naviy va ruhoniylar olami tasviri orqali XII asr Turkiston hayoti, diniy axloq, tasavvuf falsafasi, adolat va ruhiy kamolot masalalari badiiy talqin etiladi. Shu bois asarni voqealar bayoni tarzida emas, balki bir necha sathdan tashkil topgan murakkab badiiy tizim sifatida tahlil qilish zarur. Badiiy matn sathlarining qaysi biri yetakchi, qaysi biri yordamchi, qaysi biri boshqaruvchi vazifa bajarayotganini aniqlash orqali asardagi unsurlarning mohiyati to‘laroq ochiladi. Shayx hazratlari Ka’ba ziyoratini ixtiyor etibdilar!” (Siyoyev S., 2012, 5). Roman til sathining birinchi muhim belgisi davr manzarasini yuzaga keltiruvchi tarixiy va diniy-leksik birliklarning qo‘llanilishidir. “Shayx hazratlari”, “Ka’ba ziyorati”, “ixtiyor etmoq” kabi birliklar kitobxonni XII asr Turkiston muhitiga olib kiradi. Prologda “hajga ketish” xabari berilib, muqaddas safarga tayyorgarlik bilan bir qatorda insonning komillikka erishish yo‘lidagi zahmatlari, adolatli jamiyat qurish haqidagi g‘oyalar ramziylashtiriladi. Asarda voqealar tizimi safar motivi atrofida birlashadi.

Shayx holatidagi sokinlik va qat’iyat, Shahobiddin hamda Ashrafxon hojilarning hasadi, yolg‘on qasamdan qo‘rquvi va halokati, Abdurauf qalbidagi azobli iztirob iskanjasi yoki Qutbiddin va darvishlar zikridagi shiddat tovushlar tizimi orqali berilgani bois fonetik qatlam mazmunni bevosita anglatlamaydi. Fonetik sath badiiy matndagi tovushlar, ohang, urg‘u, ritm, alliteratsiya, assonans,

pauzani o‘z ichiga oladi. Quyidagi parchada zikr tushish marosimidagi jazba holati ritm, takror, undov orqali tasvirlangan:

Zokirlar tag‘in to‘rt tomonga shox tashlab huv tortdilar. Bayt qiroati tezlashdi:

– Malomatni sobuni, salomatlik Muhammad!..

– Haqu! Haqu!

Harakatlar yana ildamlashdi. Avval darvishlar har bir baytdan so‘ng bir soniya tinchib, navbatdagi zokirning xitobini kutsa, endi baytdan-baytgacha yer tepinib, beto‘xtov tebranib turdilar. Qutbiddinga navbat keldi.

Uning ovozi shirador va kuchli edi. Kutbiddin kim tez aytar bo‘lsa, g‘azalning bir baytini nafas olmay sharillatib o‘qiy boshladi:

– Tariqatda rahnamo, irodalik Muhammad,

– Haqiqatda muqtado, ijozatlik Muhammad!

Zokirlar ich-ichlaridan toshib kelayotgan hislarini jilovlay olmay jazavaga tushdi. Ular endi she‘r aytuvchi ovozning tovushiga quloq osmas, har qaysisi o‘z bilganicha baralla ovozda baqirar, shitob ila to‘rt tomonga chayqalib, bir-birlarini itkitgudek alfozda arzu samoga iltijo qilardilar:

– Yomonlikka yaxshilik! Ha! Hu! Ha! Hu!

– Karomatlik Muhammad! Ha! Hu! Ha! Hu!

– Tavfiq bergan zolimga! Ha! Hu! Ha! Hu!

– Halovatlik Muhammad! Ha! Hu! Ha! Hu! H-Ha-a!!! (Siyoyev S., 2012, 92).

“Hay! Huv!”, “Haqu! Haqu!”, “Ha! Hu! Ha! Hu!” kabi undovlar zikr jarayonidagi ritmni hosil qiladi. Undovlarning qayta-qayta takrorlanishi matnda musiqiylik va ritmik ohangni yuzaga keltirib, darvishlar qalbining ilohiy haqiqat sari talpinishi va ularning ruhiy-hissiy holatini anglatadi.

Qoradovondagi qirg‘inga qarshi otlangan qarluqlarning holati esa shunday tasvirlanadi:

Qorluq bir nima demoqchi bo‘lib og‘iz juftladi. Shu payt olisda ot kishnadi. Qorluq yalt etib o‘girildi, suvning narigi betida saman ot mingan oq qalpoqli bir kishi turardi. Saman yer tepinib ko‘kka sapchiydi, suvoriy tizginini tortib bir qo‘lini havoda o‘ynatib hayqirdi:

– He-ey, qor-lu-uq! Joning bo-ormu-u?!

Ot tag'in cho'zib kishnadi. Otliq takror tovush berdi:

– Ha-ha-ho'-o'-o'y!..

Qorluq yigit irg'ib turdi. Rangi duv qizardi, ko'zlarida to'satdan g'azab chaqnadi. To'rt sakrab suv bo'yiga bordi. Sohildagi kishiga bir tikildi-da, qo'llarini og'ziga karnay qilib javob qaytardi:

– Jo-o-on!.. Ha-ha-hay!..

Ildam iziga qaytdi. U yoq bu yoqqa alangladi (Siyoyev S., 2012, 69).

Parchada unli tovushning cho'zib talaffuz qilinishi vaziyatning keskinligi va qahramon ruhiyatidagi shiddatni ifodalaydi. “Ot kishnadi”, “tag'in cho'zib kishnadi” birikmalari orqali kitobxon voqelikni idrok qilib qolmay, otning kishnashini ham “eshitadi”. Isfijob hokimi Rukniddinga qarshi isyonga chog'langan qarluq yigitlari faqat o'zlari tushunadigan maxfiy so'zlari orqali shunday tillashadilar.

Asar ritmi zokirlarning zikri va qarluqlarning isyoni tasvirlarida keskin tus oladi. Bu shiddat tovush takrori orqali beriladi.

Morfologik sath qo'shimchalar va grammatik kategoriyalarning badiiy vazifasini o'rganadi. Kichraytirish-erkalash qo'shimchalari mehr, kinoya yoki achinish, fe'l zamonlarining almashishi xotirani, ko'plik shakli esa ayrim hollarda umumlashtirish, ba'zan esa istehzoni ifodalaydi.

Shayx tikka savol berdi:

– Xo'sh, birodar, siz nechuk tegirmonni Qur'ondin ustun qo'ydingiz? Nafsingizga qulmisiz?

Kofar sovuq kulimsiradi:

– Kim nafsiga qul emas? Mullasimi, qozisimi, oqsoqolimi? Yo qoraxitoyimi? Bari qul. Barining tomog'i teshik.

– Bundin chiqdi, dunyoda qursog'ingizdan bo'lak g'amingiz yo'q ekan-da? Yeb-ichish, yotib-turish... (Siyoyev S., 2012, 63).

Ushbu parchadagi mullasimi, qozisimi, oqsoqolimi, qoraxitoyimi so'zlaridagi egalik qo'shimchasi va so'roq yuklamasi kuchli istehzoni bildirgan. Qo'shnisi

imomning nobakorligi tufayli jahl ustida dindan chiqqan Samad ismli qarluq yigitining Ahmad Yassaviy hazratlari va u kishining shogirdlariga so‘ylagan afsusnadoati “*musulmonlaringiz*” jumlasida yanada ayonlashadi: “Payg‘ambar aytgan ekan, imonsiz kishi yalang‘och odamga o‘xshaydi deb. Ne qilay, mening imonimni sizning musulmonlaringiz yechib oldilar” (Siyoyev S., 2012, 64). Ko‘plik va egalik qo‘shimchalari qarluq yigit qalbidagi iztirob va chorasizlikni teran ifodalash imkonini bergan.

Leksik sath badiiy matndagi so‘zlar, sinonimlar, antonimlar, istorizmlar, dialektizmlar, frazeologizmlar, emotsional-ekspressiv birliklarning poetik vazifasini qamrab oladi. Leksik qatlam lisoniy sathning eng ko‘rinadigan qismi bo‘lsa-da, uni faqat lug‘aviy ma‘no bilan cheklash to‘g‘ri emas. So‘z badiiy kontekstda yangi assotsiatsiyalar hosil qiladi.

Y.Borev so‘zning milliy-madaniy xotiraga daxldorligini ta’kidlab, “So‘z xalqning ko‘p asrlik tajribasini o‘zida mujassam etadi”, deydi (Borev Y., 1997, 372). Bu fikr adabiy matnda so‘z milliy-madaniy qadriyatlar ifodasi ekanini ko‘rsatadi.

Romanda Ahmad Yassaviyning ulug‘ maqomi “Shayx”, “Shayx-ul mashoyix”, “Sulton ul-orifin”, “Hazrat”, “piri murshid” kabi bir-biriga yaqin ma’noli so‘zlar orqali ifodalangan. “Xalq”, “el”, “ulus”, “xaloyiq”, “ahli mo‘min” kabi sinonimik birliklar ommaviylik va xalqona ruhni kuchaytirgan. Imon – imonsizlik, haq – botil, yaxshilik – yomonlik, savob – gunoh, halol – harom, ruh – nafs, yorug‘lik – zulmat kabi antonimlar shaxs va jamiyat hamda shaxslararo ziddiyatni ochishga hamda asarning g‘oyaviy asosini tashkil qilishga xizmat qilgan. “Tariqat” “shariat”, “ustod”, “pir”, “murid”, “xonaqoh”, “darvish”, “irshod”, “suluk”, “avliyoyi kabir”, “pirga qo‘l bermoq”, “tariqat ahkomi” kabi diniy leksik birliklar XII asr ruhini gavdalantirgan. Tarixiy so‘zlar maktublarda asosan ko‘p qo‘llanilgan. Samarqand xoni Mahmudxon o‘g‘li Qutbiddinning to‘yiga Ahmad Yassaviy hazratlarini taklif qilib, maktub bitadi: “Haq subhonahu va taologa hamdu sanolardin so‘nggi arzi dilimiz shulki, Sizdek zoti sharif hazratimning qutlug‘ nafaslaridan bahramand bo‘lib, fazlu kamolot kasb etmish farzandimiz shahzodani kadxudolik martabasiga noil etmak orzusidamiz. Bizdek ahli irodatning faqir dasturxonini Sizdek piri komilga

muntazirdir. Muborak nazarlari birla ani bobarakot etsalar, xonadonimiz nurga to‘lur edi. Duoyi joningizni qilib, qulluq maqomida muridingiz Mahmudxon Tamg‘achxon. Allohmma sayyirna ahlul imtiyozi” (Siyoyev S., 2012, 187). Yozuvchi asarda arabiy va forsiy so‘zlardan Ahmad Yassaviy yashagan davr manzarasini hamda tasavvufiy-ma‘rifiy muhitini gavdalantirish maqsadida samarali foydalangan.

Qarluqlar, Sulaymon Boqirg‘oniy, rumlik shogird va savdogar hamda siniqchi Boybo‘sin nutqida dialektik birliklar keltirilgan. Qahramonlarning turli hudud vakillari ekani ularning nutqidagi shevaga xos so‘zlar orqali ayonlashadi. Mulla Shahobiddin Qur‘onni olib, yolg‘on qasam ichgani, Yassaviy hazratlarini yolg‘onchiga chiqarmoqchi bo‘lgani tufayli Xudo urib, zinadan yiqiladi va og‘zi qiyshayib, qo‘li sinadi. Shunda uning ahvolini ko‘rgan siniqchi Boybo‘sin yolg‘on oqibatida shu ko‘yga tushganini fahmlaydi: “– O‘trik so‘lladingma? Mo‘lda degan o‘trik so‘ylamovi kerakqo‘y. Iy-ya-a... Ay, tugesi seni jin urg‘on bo‘lmasin. O‘nda shilyosin qildir, qarog‘im. O‘nda-da, odam bo‘lmasang, Azretimga borib, o‘zinen dug‘a so‘raysin. Men ne qilamin, bayqush mo‘lda ake?” (Siyoyev S., 2012, 24).

Mazkur romanning lisoniy sathi, avvalo, tarixiy-diniy leksika, arxaik grammatik shakllar, dialogik nutq, personajlar nutqidagi ijtimoiy farqlanish orqali yuzaga chiqadi. Nolisoniy sath esa XII asr Turkistonining siyosiy-ijtimoiy vaziyati, Yassaviya tariqatining mohiyati, Ahmad Yassaviy shaxsiyati, manolib va rivoyat an‘analari, muallifning ijodiy niyati bilan bog‘liq. Shuning uchun “til – badiiy shakl – tarixiy-madaniy kontekst” uchligi roman tahlilida markaziy mezon sifatida olinadi. Asarning nomi va epigrafida bunday integratsiya seziladi. Birinchi kitob “Qasamxo‘rning jazosi” deb nomlanadi. Alisher Navoiyning mashhur ta‘rifi epigraf sifatida keltirilgan: “Xoja Ahmad Yassaviy Turkiston mulkining shayx-ul mashoyixidur. Maqomoti oliy va mashhur, karomoti mutavoliy va nomahsur ermish. Murid va ashob g‘oyatsiz va shohu gado aning irodat va ixlos ostonida nihoyatsiz ermish”. Yassaviy obrazi “shayx-ul mashoyix” va “karomatlar sohibi” sifatida ta‘riflanib, diniy, axloqiy va madaniy ramz darajasida tasvirlangan.

Romanda “shayx-ul mashoyix”, “Sulton ul-orifin”, “haj”, “bayt-ul muqaddas”, “murid”, “tariqat”, “zikr”, “fotiha”, “irshod”, “xonaqoh”, “mutaqabbir”, “munofiq”, “hadis” kabi diniy-tasavvufiy va tarixiy leksik birliklar davr ruhini berish uchungina ishlatilmagan, qahramonlar dunyoqarashi, ijtimoiy maqomini ham ochishga yo‘naltirilgan. Masalan, bozordagi oddiy dehqonlar Yassaviyni “Shayx bobo”, “Hazrati Sulton” deb ataydi, bu murojaatlarda xalqona samimiyat bilan diniy ehtirom qo‘shilib ketadi. Shahobiddinning “– Mana shu Kalomullo birla qasam ichamanki, Shayx mendek bir begunoh mo‘min-musulmonga tuhmat toshini yog‘dirib turibdur. Bir yil muqaddam bizga o‘z qo‘llari birla shahodatnoma yozib berib edilar, endi bo‘lsa, o‘shal yorliqdan ham, muhrdan ham tonib, kaminadek musulmoni komilni badnom qildilar... Parvardigori olam, o‘trik so‘ylayotgan bo‘lsam...” mazmunidagi yolg‘on qasami, mulla Tojiddinning hasadi: “– Shayxingga qara, o‘zini aziz qilib alifdek g‘o‘ddayadi-ya! Takabburki, go‘yo boshi arshi a‘loga yetgan! Yo navzambillo! Hoy, noinsof, xalq sendin mol-dunyo so‘rayotgani yo‘q, bir og‘iz suxaningni eshitmoqchi xolos” (Siyoyev S., 2012, 151) yoki Ashrafxon qozining “Shayxingiz osmonu siz bilan biz qaro yer bo‘ldikmi? Alloh bizlarni tepkilab yurishga yaratibdimi? Qodir egamning bandalari bir siqim tuproqdin bunyod etilibdir” (Siyoyev S., 2012, 276) degan iddaosi munofiq kimsalarning tashqi dindorlik niqobi va ichki riyokorligini fosh etuvchi stilistik vositaga aylanadi.

Arxaik grammatik shakllar ham lisoniy sathning muhim belgilaridan biridir. “Ermish”, “aro”, “anda”, “nechuk”, “magar”, “birla”, “otlandi”, “sazoyi qilinsun” kabi birliklar zamonaviy adabiy til me‘yoridan ataylab chekinadi va tarixiy nutq muhitini yuzaga keltiradi. Bunday stilizatsiya tasvirlanayotgan davrning ruhiga olib kirgani bois tarixiy koloritning badiiy tayanchi hisoblanadi.

Dialoglar roman tilining jonli qatlamini tashkil etadi. Nizomiddin va Kamolning bozordagi suhbatida xalq orasidagi xavotir, pirdan najot kutish ilinji ayonlashadi, ularning nutqi sodda, savol-javoblari qisqa quriladi. Shahobiddin, Ashrafxon qozi nutqida esa haqorat, istehzo, fisq-u fasod va o‘zini oqlash ohangi ustun. Yassaviyning nutqi esa sokin, ammo qat‘iyatli, ba‘zan keskin, fikrlari Qur‘on va

hadislar sharhi bilan asoslanadi. Nutqiy xarakter yaratish lisoniy sathdan boshlanib, personajlararo ziddiyatni asarning g‘oyaviy-badiiy mazmuniga singdiradi.

Nolisoniy sath matndan tashqaridagi tarixiy, diniy, ijtimoiy va biografik omillarning badiiy tuzilishga ta’sirini anglatadi. N.S.Bolotnova matn tahlilida nolisoniy omillarni “kodlar”ni ochish kaliti sifatida talqin qiladi, ya’ni matn ma’nosi faqat ichki til qurilishidan emas, balki davr, sharoit, muallif shaxsi, kitobxon idroki bilan bog‘liqlikda anglashiladi (Bolotnova N., 2009, 376). “Ahmad Yassaviy” romanida bunday semantik kalitlar juda ko‘p: Turkiston, Sayram, Isfijob, Qorator, Xuroson, Marv kabi toponimlar; Yassaviya tariqati, jahriya zikri, murid-murshid munosabatlari; qoraxitoy va elikxonlar xavfi; xalqning pirdan ma’naviy himoya kutishi shular jumlasidandir.

Roman muallifi asarni yaratishda tasavvufga oid ilmiy manbalar va manoqiblarga, “Devoni hikmat”ga, xalq rivoyatlariga tayanadi. Muallif so‘ngso‘zida Bertelsning kitoblari, turk olimi Fuad Ko‘prilizodaning mutasavvuflar haqidagi monografiyasi, muarrix Faxriddin Ali Safiyning “Rashahot aynul hayot” risolasi, Ro‘zbexonning “Mehmonnomayi Buxoro” asari, Yusuf Hamadoniy, Abdulxoliq G‘ijduvoniy hayotiga bag‘ishlangan manoqiblar, Hazrat Navoiyning “Shamoyil ul-muhabbat” durdonasi, Najmiddin Komilov, Ibrohim Haqqul singari zamondosh olimlarning tasavvufga oid tadqiqotlari, shuningdek, Sayram safarlarida yozib olingan rivoyatlar unga yordam berganini qayd etadi, eng asosiy manba sifatida “Devoni hikmat”ni e’tirof etadi (Siyoyev S., 2012, 332). Bu ma’lumot romanning nolisoniy asosini belgilaydi: asar sof taxayyul mahsuli emas, tarixiy xotira, diniy adabiyot va xalq og‘zaki ijodi an’analari bilan o‘tmish badiiy jonlantirilgan.

Yassaviy obrazining badiiy talqinida ham nolisoniy kontekst hal qiluvchi ahamiyatga ega. Asar muallifi Asqad Muxtordan eshitgan “Yassaviy haykalga aylanib qolmasin” degan maslahatiga amal qilgan (Siyoyev S., 2012, 332). Shuning uchun romanda Yassaviy faqat karomatli avliyo emas, yurt taqdiri va xalq mas’uliyatini o‘ylaydigan rahnamo sifatida gavdalandiriladi. Bu adabiyotshunoslikdagi obraz psixologizmi bilan tilshunoslikdagi ichki monolog, ruhiy tasvir va leksik-semantik takrorlarning tutashgan nuqtasida yuzaga keladi.

Lisoniy va nolisoniy sathlar integratsiyasi ayniqsa “Qasamxo‘rning jazosi” epizodida hamda “Bir “Ahmad” pand berdi” nomli 18-faslidagi qalbaki maktub va muhr voqeasida yaqqol ko‘rinadi. Shahobiddinning soxta irshod yozib, o‘zini xonaqoh piri deb e‘lon qilishi shaxslararo konfliktni yuzaga keltirsa, uning lingvistik ifodasi “yolg‘on fatvo”, “qalbaki muhr”, “nafs jilovi”, “munofiq” kabi leksemalar orqali keltiriladi. “Qasam” motivi orqali qahramon vijdoni sinovdan o‘tkaziladi. Yassaviy omma oldida Shahobiddinning nobakorligini fosh etar ekan, gaplarini hadis bilan dalillaydi va Qur‘onni ushlab, xalq guvohligida qasam ichtiradi: “– Mana shu Kalomullo birla qasam ichamanki, Shayx mendek bir begunoh mo‘min-musulmonga tuhmat toshini yog‘dirib turibdur. Bir yil muqaddam bizga o‘z qo‘llari birla shahodatnoma yozib berib edilar, endi bo‘lsa, o‘shal yorliqdan ham, muhrdan ham tonib, kaminadek musulmoni komilni badnom qildilar... Parvardigori olam, o‘trik so‘ylayotgan bo‘lsam...” (Siyoyev S., 2012, 12). Lisoniy va nolisoniy sathlarning adabiy-estetik integratsiyasi dialog, qasam motivi, dramatik holat orqali namoyon bo‘ladi. Lisoniy sathda diniy-leksik birliklar personaj nutqiga ishonch ohangini beradi, “begunoh”, “musulmoni komil” so‘zlari orqali o‘zini pokdomon ko‘rsatishga urinadi. Nolisoniy sath qahramonning qasam ichishi, o‘zini oqlashga urinishi, “Parvardigori olam” deb iltijo qilishi orqali uning qo‘rquvi va jamiyat oldida obro‘cini saqlab qolish talvasasini bildiradi. Qasam diniy e‘tiqod va xalq oldidagi ma‘naviy javobgarlik belgisi sifatida keltirilgani bois kuchli dramatism hosil qilgan.

Ashrafxon qozi bilan bog‘liq soxta maktub voqeasida lisoniy sath hokimiyatga daxldor so‘zlar orqali shakllanadi: “qozi”, “muftiy”, “xon”, “rutba”, “imonin sotqon qozikalon”. Qozi maktub tufayli Yassaviy va Samarqand xoni Sulton Mahmudxon o‘rtasiga shubha va sovuqlik tushishini istaydi. Xatni Yassaviy ataylab Ashrafxonga o‘qittiradi, qozi “ko‘zim ojizroq” deyishiga qaramay, Shayxning “sakta yerini-da tuzatib ketasiz, o‘qing” degan kinoyali gapi orqali vaziyatdan xabardorligini anglatadi. Nolisoniy sathda esa jazoga tortilish muqarrarligini anglab yetgan Ashrafxon qozining xatti-harakati, qo‘rquvi namoyon bo‘ladi, hatto munofiqlik bilan qalbaki nomani yozganlarni jazoga tortilishini talab qiladi: “ – Janobi shayx

ur-ra'is ori'y rost gapurdilar. Ul nechuk beiymon rahnamoki, qo'lida tasbeh tutib, shavkatli xonimiz birla piri buzrukvorga tuhmat qilg'ay! Biz Sobron ulamoyi kirom nomidan talab qilamiz, ul kazzob bo'htonchini toptirib, shar'iy hukm birla jazo berilsun!" (Siyoyev S., 2012, 169). Soxta maktub fosh bo'lgach, "inqillab" o'rnidan turadi, bir necha qadam bosib xon tarafga yiqiladi, "bir qoshiq qonimdan keching" deya tiz cho'kkan holatda o'zini oqlashga harakat qiladi. Xonning "qotilda bir qatla gunoh bo'lsa, uning qo'liga xanjar tutqazgan kimsaning gunohi ikki qatladur" (Siyoyev S., 2012, 171) degan hukmi orqali soxta xat yozgan odamgina emas, uni uyushtirgan qozi aslida haqiqiy aybdor ekani ta'kidlanadi. "Eshakka teskari mindiring bu imonsizni" degan jazo nolisoniy belgiga aylanadi: u mansab, ilm va din niqobi ostida yashiringan riyokorlikning xalq oldida teskari aylantirilgan qiyofasini ko'rsatadi. Lisoniy sath fitna, bo'hton va xiyonatni ifodalasa, nolisoniy sath qozining jazoga mustahiqligi, xonning oyoqlariga yiqilish, qo'rquv, tayoq va eshakka teskari mindirish voqealari ta'sirchan gavdalantiradi.

Asarda zamon va makon tasviri ham integrativ xususiyatga ega. Syujet xronologik izchillikda davom etmagani bois qahramonlar xotiralari tasviri orqali o'tmishga murojaat qilinsa, shayx hazratlarining orzu-umidlari ifodasida uzoq kelajakka yuzlaniladi: "Turkiy el telbadek o'z-o'zi birla tillashmoqni xush ko'rmas, aning sa'y-harakati, shijoati, jismoniy quvvati tovush berib zikr tushmakka moyildir" – o'ylandi Shayx va G'avsul a'zam Abdulqodir Giloniydan meros qolgan xadra – baralla, jo'rovoz zikrni Yassaviy tariqatining bir sharti deb qabul etdi. Uning yana bir muhimroq, olis kelajakni ko'zlagan pinhoni'y niyati ham bor edi: "Turkiston zaminida bir-birining gapiga kirmay, og'zi olalik qilib yurgan tarqoq elat, zora ushbu zikr bahonasi ila besh panjadek mahkam birlashsa va inshoollo, zamondin zamonlar o'tib turkiy lafzda so'zlaguvchi ellar mashriqdinni, mag'ribdinni keluvchi zobitlar, vatangadolar ilkida ko'pkaridek talosh bo'lmasa", deya saharlar Alloh taologa munojot aytardi" (Siyoyev S., 2012, 91). Roman badiiy zamoni XII asr Turkistondagi hayot tasviri, Yassaviyning keksalik davridagi so'nggi haj safari, tasavvufiy g'oyalarning keng yoyilishi hamda davrning diniy-ma'naviy, ijtimoiy-siyosiy ziddiyatlari bilan uzviy holda tasvirlanadi. Badiiy makon esa Yassi

markazidan boshlanib, safar mobaynida Isfijob, Sobron, Qumkent, Qoratov, Sayxun, Dashti Qipchoq, Buxoro va Makka tomon kengayadi.

1-jadval

“Ahmad Yassaviy” romanida badiiy zamon tasviri

Badiiy zamon	Asardagi zamonni anglatuvchi birliklar	Voqealar tasviri
Tarixiy davr	XII asrdagi Turkiston muhiti	Ahmad Yassaviy yashagan davr qoraxoniylar, saljuqiylar, qoraxitoylar xavfi hamda tasavvuf tasavvufiy ta’limotlar va tariqatlar ta’siri kuchaygan tarixiy-ma’naviy muhit tasvirlanadi.
Aniq tarixiy sana	Hijriy 541-yil, rabiulavval oyining 13-kuni, payshanba, yarim tun	Yassaviy haj safariga chiqishdan oldin Yassi shahri, osmon, oy, yulduzlar, ona yurt tabiati bilan vidolashadi.
Safar vaqti	Bir yilga yaqin davom etadigan safar	Bu vaqt asarda sinov, ayriliq, ruhiy poklanish davri sifatida beriladi.
Oraliq zamon	Yarim yillik hijron	Keyingi voqealarda Yassaviy karvoni Turkiston tomon qaytayotganda “yarim yillik hijron” tilga olinadi.
Asar zamonining nihoyasi	Keksalik, so‘nggi safar	Yassaviyning uzlatga chekinish va ruhiy kamolot bosqichi tasvirlanadi.

2-jadval

Romanning badiiy makon xaritasi

Badiiy makon	Asardagi vazifasi	Badiiy ifodasi
Turkiston	Voqealarning boshlanish va nihoyasi ro‘y bergan makon	Turkiston turkiy xalqlarning ma’naviy makoni sifatida tasvirlanadi.
Yassi shahri	Asosiy markaziy makon	Yassaviy yashagan, haj safari boshlanadigan makon.
Masjidi Sultoniya	Diniy-ma’naviy makon	Yassaviy xalq bilan shu yerda vidolashadi, Shahobiddin hojining yolg‘on qasami fosh etilib, axloqiy hukm chiqariladi.
Yassi bozori	Xalq hayoti ko‘rsatiladigan joy	Bozordagi oddiy xalq tasviri orqali davr ruhi, xalq kayfiyati va Yassaviyga ma’naviy rahnamo sifatida qarashlari ifodalanadi.

Xonaqoh / hujra	Yassaviyning ichki ruhiy makoni – uzlat makoni	Zikr, tafakkur, yolgʻizlik, tavba, tariqat va ilohiy mushohada orqali ilohiy Haqiqatga intilish tasvirlanadi.
Isfijob	Yassaviyning ota makoni	Yassaviyning kindik qoni toʻkilgan, ota-onasi xotirasi bilan bogʻliq muqaddas makonni ziyorat qilish tasviri keltiriladi.
Sobron	Shahobiddin hojining kelgan joyi	Bu makon yolgʻon, xiyonat, soxta shayxlik va diniy niqob ostidagi hasad va nafs timsoli bilan bogʻlanadi.
Qumkent	Soxta irshod voqeasi bilan bogʻliq makon	Shahobiddin shayx hazratlari nomidan soxta irshod yozib, oʻzini Qumkent xonaqosining piri deb eʼlon qiladi.
Qorator	Himoya makoni	Xalq Yassaviyni balo-qazoni “Qoratorday toʻshi bilan toʻsib turadi” deb tasavvur qiladi, bu togʻ balo-qazodan himoya qiluvchi ramziy makonga aylanadi.
Samarqand	Sinov makoni	Qutbiddinning ruhi va nafi oʻrtasidagi ziddiyat sinovdan oʻtkaziladi.
Sayxun boʻylari	Vatan manzarasi	Ona yurt sogʻinchi timsoli sifatida gavdalanadi.
Dashti Qipchoq	Keng turkiy makon	Dashti Qipchoq shamollari, sahro xalqi va islomga kirish jarayoni orqali roman badiiy makoni kengayadi.
Buxoro	Ilm va din markazi	Diniy-maʼrifiy makon sifatida tasvirlanadi, unda Abdulxoliq Gʻijduvoni bilan uchrashadi.
Makka / Kaʼba / Hijoz	Safar manzili	Haj, ruhiy poklanish, farz ado etish va hayot maʼnosini izlash makoni sifatida tasvirlanadi.

Roman badiiy zamon va makon tasviri lisoniy va nolisoniy sathlarning bir-biriga uzviyligi natijasida badiiy-estetik yaxlitlik kasb etadi. Lisoniy sathda ijodkor tarixiy-diniy leksika, joy nomlari, hijriy zamon va tasavvufiy istilohlar, yaʼni “hijriy 541-yil”, “rabiulavval”, “Yassi”, “Isfijob”, “Masjidi Sultoniya”, “shayx”, “xonaqoh”, “murid”, “xalifa”, “zikr” kabi birliklar orqali XII asr Turkiston muhitini yaratadi. Nolisoniy sath esa zokirlar zikri, haj safari, xalqning Yassaviyga eʼtiqodi,

bozor manzarasi, masjid makoni, tun, oy, yulduz, shamol, togʻ va daryo kabi tasvirlar orqali namoyon boʻladi. Makon tasvirida ham lisoniy va nolisoniy sathlar oʻzaro integratsiyalashadi: makon faqat geografik hudud emas: Yassi – tariqat ilmi markazi, Isfijob – maʼsum bolalik xotiralari, ota-ona ziyorati; Makka – ruhiy poklanish, Sayxun va Turkiston — vatan sogʻinchi, Dashti Qipchoq esa turkiy dunyoning keng tarixiy makoni sifatida keltiriladi. Romandagi zamon va makon tasviri qahramonlarning ichki kechinmalari va tasavvufiy dunyoqarashni birlashtiruvchi badiiy maydonga aylanadi. Lisoniy sath tarixiy-maʼnaviy mazmunni soʻz orqali shakllantirsa, nolisoniy sath shu maʼnoni diniy marosim, zamon, makon va ruhiy holat orqali badiiy ifoda salmogʻini oshiradi. Shu sababli lisoniy sathdagi dialog, murojaat, diniy termin va tasviriy sintaksis nolisoniy sathdagi zamon va makon bilan uzviy bogʻlanadi.

3-jadval

Lisoniy va nolisoniy omillar integratsiyasi

Tahlil yoʻnalishi	Lisoniy omil	Nolisoniy omil	Adabiy-estetik vazifasi
Tarixiy-madaniy muhit	Tarixiy va eskirgan soʻzlar, tarixiy unvonlar	XII asr Turkiston tarixiy muhiti	Davr ruhini jonlantirish
Tasavvufiy mazmun	Tariqat, shariat, hikmat, zikr, duo, qasam	Yassaviylik tariqati va diniy eʼtiqod	Maʼnaviy-estetik chuqurlik yaratish
Personaj nutqi	Monolog, dialog, kinoya, qasam, vaʼz	Ijtimoiy maqom, ruhiy holat, xalq tafakkuri	Xarakter va konfliktni ochish
Muallif konsepsiyasi	Tavsif, epigraf, ichki portret, peyzaj	Tarixiy xotira, maʼnaviy pozitsiya	Yassaviy obrazini tarix haqiqatiga tayanib, yaratish
Kitobxon idroki	Obrazli ifoda, emotsional ritm, diniy-maʼrifiy tasvir	Xotira, axloqiy qadriyat, estetik idrok	Taʼsirchanlik va talqin imkonini kuchaytirish

Sa'dulla Siyoyevning "Ahmad Yassaviy" romanida lisoniy va nolisoniy sath yaxlit badiiy tizimning tarkibiy qismlaridir. Leksik birliklar tarixiy muhitni, diniy-tasavvufiy dunyoqarashni va personajlarning ma'naviy olamini ifodalaydi, nolisoniy omillar esa Ahmad Yassaviy shaxsiyati, "Devoni hikmat" an'anasi, tasavvuf manbalari, xalq rivoyatlari va muallifning ijodiy niyati asarning estetik yaxlitligi, ishonarliligi va badiiy ta'sirchanligini kuchaytiradi.

XULOSA

Zamonaviy adabiyotshunoslikda badiiy matn ko'p o'lchamli, mazmun, uslub, tarix, madaniyat, muallif va kitobxon munosabati bilan bog'liq murakkab tizim sifatida talqin qilinmoqda. Shu asosda ta'kidlash joizki, badiiy asarda lisoniy va nolisoniy omillar o'zaro bog'liqlikda vazifa bajaradi. Matnning tashqi ifoda shaklini lisoniy omillar yuzaga chiqarsa, shu ifodaning mazmuniy asoslarini nolisoniy omillar belgilaydi. Lisoniy omillar romanda fikr, obraz va estetik ta'sirni til orqali ifodalashga xizmat qiladi. Badiiy so'z, gap qurilishi, dialog, monolog, takror, metafora, epitet, ritm va uslubiy vositalar yordamida ijodkor voqelikni badiiy tarzda tasvirlaydi. Lisoniy omillar asarning obrazlilik, ta'sirchanligi, uslubiy o'ziga xosligi va estetik qimmatini shakllantiradi. Nolisoniy omillar tarixiy davr, ijtimoiy muhit, diniy qarashlar, urf-odatlar, marosimlar, muallif dunyoqarashi va kitobxon idrokini o'z ichiga oladi, voqealar, obrazlar va konfliktlarni chuqurroq talqin qilish vazifasini bajaradi.

Romanda lisoniy va nolisoniy omillar uzviylikda matnning adabiy-estetik yaxlitligini ta'minlaydi. Lisoniy omillar yozuvchi fikrini badiiy til orqali ifodalasa, nolisoniy omillar shu fikrning tarixiy, madaniy va ma'naviy asoslarini ochib beradi. Bu ikki qatlam integratsiyasi badiiy matnning mazmuniy teranligi, obrazlar ishonarliligi va estetik ta'sir kuchini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Болотнова Н.С. Филологический анализ текста. – Москва: Флинта; Наука, 2009. – 520 с.
2. Боров Ю.Б. Эстетика. В 2-х т. Т. 1 - 5-е изд. – Смоленск: Русич, 1997. – 576 с.
3. Кошелев А.Д. Ю.М. Лотман и тартуско-московская семиотическая школа. – Москва: Гиозис, 1994. – 560 с.
4. Лотман Ю.М. Структура художественного текста. – Москва: Искусство, 1970. – 387 с.
5. Сийев С. Аҳмад Яссавий: роман. – Тошкент: Ўзбекистон, 2012. – 334 б.
6. Теория литературы: учебное пособие. – Т. 1: Н. Д. Тamarченко, В. И. Тюпа, С. Н. Бройтман. Теория художественного дискурса. Теоретическая поэтика. – Москва: Академия, 2004. – 512 с.
7. Тюпа В.И. Анализ художественного текста: учебное пособие. – Москва: Академия, 2009. – 336 с.
8. Щирова И. А., Гончарова Е. А. Многомерность текста: понимание и интерпретация: Учебное пособие. – СПб.: Книжный Дом, 2007. – 472 с.
9. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi, 2004. – 224 b.
10. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – 480 b.
11. Қуроноф Д. Назарий қайдлар. – Тошкент: Akademnashr, 2018. – 129 б.

REFERENCE

1. Болотнова, Н. С. (2009). *Филологический анализ текста*. Флинта; Наука.
2. Боров, Ю. Б. (1997). *Эстетика* (Т. 1, 5-е изд.). Русич.
3. Кошелев, А.Д. (1994). *Ю.М. Лотман и тартуско-московская семиотическая школа*. Гиозис.
4. Лотман, Ю. М. (1970). *Структура художественного текста*. Искусство.
5. Сийев, С. (2012). *Аҳмад Яссавий: роман*. Ўзбекистон.
6. Тмарченок, Н.Д., Тюпа, В.И., & Бройтман, С. Н. (2004). *Теория литературы: Теория художественного дискурса. Теоретическая поэтика* (Т. 1). Академия.
7. Тюпа, В. И. (2009). *Анализ художественного текста*. Академия.
8. Щирова, И.А., & Гончарова, Е.А. (2007). *Многомерность текста: понимание и интерпретация*. Книжный Дом.
9. Quronov, D. (2004). *Adabiyotshunoslikka kirish*. A. Qodiriy nomidagi xalq merosi.
10. Quronov, D. (2018). *Adabiyot nazariyasi asoslari*. Akademnashr.
11. Куронов, Д. (2018). *Назарий қайдлар*. Akademnashr.